

Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-oktabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7332 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 181 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 30 818,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 109,1 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 916,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 24 419,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 481,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 282 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 253 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 22 912,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 22 034,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 % ga to'g'ri keldi Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,2 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (8,7 m) va Bag'dod (6,6 m), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 906 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 19 655,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'ona sh., Oq'yol ko'chasi, 104-a
---	--	---	--